

**SURUNKALI YIRINGLI OTITNI RLINIK SHAKILLARI VA KELITIRIB
CHIQRUVCHI OMILLARNI O'RGANISH**
**Xayitmurodova Iroda 503-guruh 2 pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti Ilmiy
rahbar: ass. Ismatova K.A.**

**TashPMI, Otorinolarinologiya, bolalar otorinolarinologiyasi va bolalar
stomatologiya kafedrası**

Dolzarbli: Hozirgi vaqtda tibbiyotning sezilarli darajada rivojlanganligiga qaramay kattalar va bolalar o'rtasida surunkali yiringli o'rta otit kasalligi juda ko'p uchraydi. Bu o'z navbatida bemorlarda eshitish qobiliyatini pasayishiga yoki butunlay yo'qolishiga, og'ir holatlarda esa bosh miya, ko'z asoratlarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu esa kasallikni kelib chiqish mexanizmini va bunga sabab bo'luvchi omillarni o'rganish va uni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish, bemorlar orasida nogironlik darajasini kamayishiga olib keladi.

Ishning maqsadi. Surunkali yiringli o'rta otit bilan kasallangan bemorlarda kasallikni keltirib chiqaruvchi omillarini va kasallik shakillarini o'rganish.

Material va usullar: Bu tekshiruvimizda 2019-2020 yillarda «Happy life» klinikasining LOR bo'limiga murojat qilgan 5 yoshdan 77 yoshgacha bo'lgan 437 ta bemorlar tekshirildi. Shifoxonaga kelgan bemorlarga MKB-10 bo'yicha tasdiqlangan mezonlar asosida surunkali yiringli o'rta otit tashxisi qo'yildi. Barcha bemorlarda umumiy LOR tekshiruvi rinoskopiya, otoskopiya, faringoskopiya, akumetriya, tonal busag'a audimetriyasi, otomikroskopiya, chakka suyagi MSKT si tekshiruvlari o'tkazildi.

Olingan natijalar: Bemorlarda surunkali otit bilan kasallanganlik davri 2 yildan- 30 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil qilgan. Ulardan 175 tasi ayol (40,04%) va 146 tasi erkak (33,4%) va 116 tasi (26,5%) 5 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi.

Otoskopiya, otomikroskopiya tekshiruvlariga binoan bemorlarning 142 tasida (32,5%) quruq mezotimpanit, 172 (39,3%) tasida yiringli epimezotimpanit, 69 tasida (15,7%) yiringli epitimpanit va 54 (12,3%) tasida yiringli epitimpanit xolesteatoma, granulyatsiya yoki polip bilan tashxislandi. Anamnez yig'ish vaqtida, murojat qilgan bemorlarning 80% kasallikni yoshligida yoki o'smirlik davrida o'tkir o'rta otit o'tqazganligi bilan bog'laydi. Ulardan 3% nog'ora parda travmasi va 7% esa yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasallig'larini bilan tez tez kasal bo'lishi bilan bog'laydi. Tekshiruvlardan malum bo'ldiki bemorlarning 82 tasida I darajasili aralash tipdagi eshtish zaifligi 199 nafarida II-III darajali aralash tipdagi eshtish pastligi, va 201 nafarida III-IV darajadagi aralash tipdagi eshtish zaifligi aniqlandi va 55 (12,6%) ta bemorda turli darajadagi sensonevral eshtish zaifligi aniqlandi. Bemorlarning 5% da yuz nervini falaji va 4,5 % bosh miya asorati kuzatilgan. Bunga ko'ra surunkali o'rta otitning asorati naqadar jiddiy va nogironlikka olib keluvchi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga molik kasalliklar sirasiga kiritsak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa: 1. Yuqoridagi tekshiruvlarga ko'ra surunkali o'rta otitning rivojlanishi bemorlarning 80%da erta bolalik yoki o'smirlik davrida o'tkir o'rta otit o'tqazganligi bilan bog'laganligi malum bo'ldi. Bu esa shuni ko'rsatadiki o'tkir o'rta otit bilan erta bolalik va o'smirlik davrida kasallanishni kamaytirish va kasallikka olib keluvchi omillarni bartaraf qilish, kasallikni samarali, sifatli davolash zarurligini ko'rsatadi.

2. Kasallikka sabab bo'luvchi omillarni aniqlash va bartaraf qilish, bemorlarni eshitish qobiliyatini saqlab qolish, kasallikka va nogironlikka olib keluvchi surunkali otitning og'ir shakillarini kamaytirish zamonaviy otorinolarinologiyaning eng muxim muammosi sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Камчатнов, Павел Рудольфович, and Александр Вильмирович Чугунов. "Хронические цереброваскулярные заболевания." Доктор. Ру 1 (130) (2017): 11-15.